

Uy-joy fondini obodonlashtirish statistika ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Uy-joy fondini obodonlashtirish statistika ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – uslubiy nizom) uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko'rsatkichlarini hisoblash tartibini belgilaydi.

Mazkur uslubiy nizom BMTning Yevropa Iqtisodiy komissiyasi, Yevrostat hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining birlashgan guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizom kvartira (uy)larning jihozlanganligi, ya'ni ichimlik suvi, kanalizatsiya, issiqlik, issiq suv va tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasini hisoblashda, uy-joy olish va yashash sharoitlarini yaxshilash uchun fuqarolar tomonidan berilgan arizalar holati, turar joyga muhtoj bo'lgan yetim bolalar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar va shu toifaga kiruvchi (18 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan) shaxslar to'g'risida tegishli statistika ma'lumotlarini shakllantirishda yagona uslubiy yondashuvni ta'minlash maqsadida tayyorlangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

uy-joy fondi – inson yashashi uchun yaroqli bo'lgan turar joydan, shu jumladan uylar, kvartiralar, xizmat turar-joylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylardan) iborat.

turar joy – fuqarolarning doimiy yashashlari uchun mo'ljallangan, belgilangan sanitariya, yong'inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan,

shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar sifatida foydalanishga mo'ljallangan joylar hisoblanadi;

yakka tartibdagi uy-joy – bir yer uchastkasida joylashgan, doimiy yashash, dam olish va shaxsiy xo'jalikni yuritishga mo'ljallangan yordamchi-xo'jalik imoratlari va hovlidagi inshootlar tegishli bo'lgan bir yoki bir necha turar joy imorati;

ko'p kvartirali uylar – umumiy muhandislik tizimlari va kvartiralardan tashqari joylari mavjud bo'lgan ikki va undan ortiq kvartirali uydir;

uy-joy fondini obodonlashtirish – turar-joylarni suv quvuri, kanalizatsiya, tabiiy gaz, issiqlik, issiq suv ta'minoti bilan jihozlanganligi;

uy-joy olish uchun turar joyga muhtojlar sifatida hisobga olingan oilalar – bunda oilaning bir nafar a'zosiga to'g'ri keladigan umumiy yashash maydoni bilan ta'minlanishi qonun hujjatlarida belgilangan me'yordan kam bo'lgan oilalar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, davlat yoki ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarni bajargan shaxslar va favqulodda holat yoki majburiy ko'chirishga uchragan oilalar;

uy-joy olish uchun turar joyga muhtojlar hisobidan chiqarilgan oilalar – ariza beruvchi o'z xohishi bilan navbatdan chiqishni so'raganda, davlat tomonidan yoki boshqa manbalar hisobidan uy-joy bilan ta'minlanganda, oilalar mahalliy komissiyalar tomonidan hisobdan chiqariladi.

2- bob. Uy-joy fondini obodonlashtirish asosiy statistik ko'rsatkichlari va ularni shakllantirish manbalari

3. Uy-joy fondini obodonlashtirish asosiy statistika ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik;
- kvartira (uy)larning kanalizatsiya bilan ta'minlanganligi;
- kvartira (uy)larning issiq suv bilan ta'minlanganligi;
- kvartira (uy)larning issiqlik bilan ta'minlanganligi;
- kvartira (uy)larning gaz bilan ta'minlanganligi;
- uy joy olish uchun turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan oilalar;
- uy-joy olish uchun turar joyga muhtojlar hisobidan chiqarilgan oilalar soni;
- hisobot yilida uy-joy olgan va yashash sharoitlarini yaxshilagan oilalar soni;
- hisobot yilida uy-joy olgan va yashash sharoitlarini yaxshilagan oilalarning ijtimoiy holatiga ko'ra soni.

4. Uy-joy fondini obodonlashtirish statistika ko'rsatkichlarini hisoblash uchun:

1 kom (ichimlik suvi) shakli (yillik) "Ichimlik suvi bilan ta'minlash to'g'risida"gi statistika hisoboti;

1 kb (kommunal) (1 kb shakliga ilova) (yillik) "Oqova suvlarni markazlashtirilgan holda chiqarib yuborishni, obodonlashtirish va yoritish ishlarini amalga oshiruvchi, aholiga va maishiy-kommunal ehtiyojlarga suv, issiqlik energiyasi hamda issiq suv yetkazib beruvchi mikrofirma va kichik korxonalarning hisoboti";

1 kom (kvartira) shakli (yillik) "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyati to'g'risida"gi statistika hisoboti;

1 energo (gaz) shakli (yillik) "Tabiiy, suyultirilgan gazdan foydalanish bo'yicha" statistika hisoboti;

1 sanoat (shakli) (kanalizatsiya) shakli (yillik) "Kanalizatsiya ishi to'g'risida" statistika hisoboti;

1 uy-joy "Uy-joy olish uchun turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan va uy-joy olgan oilalar soni to'g'risida" statistika hisoboti (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining "Uy-joy fondi to'g'risida"gi ma'muriy ma'lumotlari axborot manbai bo'lib hisoblanadi.

3- bob. Uy-joy fondini kommunal infratuzilma bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari

5. Uy-joy fondini kommunal infratuzilma bilan ta'minlanganligi kvartira (uy)larni ichimlik suvi, kanalizatsiya, isitish, tabiiy gaz, suyultirilgan gaz, issiq suv va boshqalar bilan ta'minlanganligi tushuniladi. Uy-joy fondini sifat ko'rsatkichi bo'lgan ta'minlanganlik darajasi, barcha turdagi obodonlashtirish majmuasi bilan jihozlangan turar joylarning soni bilan o'lchanadi.

1-§. Ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash usuli

6. Agar kvartira (uy)ning ichida markaziy suv ta'minoti tizimidan yoki artezian qudug'idan suv oqadigan suv ta'minoti tizimining tarqatish tarmog'i bo'lsa, kvartira (uy)lar suv quvuri bilan jihozlangan deb hisoblanadi.

7. Kvartira (uy)larning ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$TD_s = \frac{K_s}{K} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_s – kvartira (uy)larning ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi;

K_s – yil oxiriga ichimlik suvi bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni;

K – yil oxiriga jami kvartira (uy)lar soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 1-ilovada keltirilgan.

8. Ichimlik suvi markazlashtirilgan suv ta'minoti tizimiga ulangan bo'lsa kvartira (uy)lar markazlashgan ichimlik suvi ta'minlangan hisoblanadi.

Muqobil (alternativ) manbalar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlanish – buloq suvi, daryo-soy suvi, kanal-ariq suvi, quduq suvi, qo'lda ishlatiladigan suv nasosi (kachalka), hovuz suvi va boshqa hududdan o'z texnikasi yordamida ichimlik suvi bilan ta'minlanishidir.

9. Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi yil oxiriga ichimlik suvidan foydalanuvchi aholi sonining jami aholi soniga nisbati orqali foizlarda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$TD_{as} = \frac{A_s}{A_n} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_{as} – aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi;

A_s – yil oxiriga ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi soni;

A_n – jami aholi soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 2-ilovada keltirilgan.

10. Kvartira (uy)larni yakka holda muqobil manbalar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlanish ko'rsatkichini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$TD_{sm} = \frac{K_{sm}}{K} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_{sm} – kvartira (uy)larni yakka holda muqobil manbalar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlanish;

K_{sm} – yakka holda muqobil manbalar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni;

K – yil oxiriga kvartira(uy)larning umumiy soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 3-ilovada keltirilgan.

2-§. Kvartira (uy)larning kanalizatsiya bilan ta'minlanish darajasi ko'rsatkichini hisoblash usuli

11. Agar kvartira (uy)ning ichida maishiy suvni (najosat suvni) markazlashtirilgan tashqi kanalizatsiya tarmog'iga yoki singdiruvchi quduqqa to'kish uchun kanalizatsiya tizimi bo'lsa, kvartira (uy)lar kanalizatsiya bilan ta'minlangan deb hisoblanadi.

12. Agar turar joy markazlashtirilgan oqova suv tarmog'i tizimiga ulangan bo'lsa, kvartira (uy)lar markaziy oqova suv tarmog'iga ulangan hamda hovlida alohida assimilyatsiya quduqlari va hovli septiklari mavjud bo'lsa, yakka holda kanalizatsiya tizimi bilan ta'minlangan hisoblanadi.

13. Kvartira (uy)larning kanalizatsiya bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$TD_k = \frac{K_k}{K} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_k – kvartira (uy)larning kanalizatsiya bilan ta'minlanganlik darajasi;

K_k – yil oxiriga kanalizatsiya bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni;

K – yil oxiriga jami kvartira (uy)lar soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 4-ilovada keltirilgan.

14. Kanalizatsiya ishi to'g'risidagi 1 sanoat (kanalizatsiya) shakli (yillik) statistika hisoboti bo'yicha yil oxiriga ko'cha kanalizatsiya tarmog'iga ulangan kvartira (uy)lar soni to'g'risidagi ma'lumotlari 1 uy-joy fondi shakli (yillik) statistika hisoboti ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

3-§. Kvartira (uy)larning issiq suv bilan ta'minlanish darajasi ko'rsatkichini hisoblash usuli

15. Agar kvartira (uy)lar markazlashgan issiq suv quvuriga ulangan yoki yakka holda uskunalar orqali issiq suv ta'minoti mavjud bo'lsa, kvartira (uy)lar issiq suv bilan ta'minlangan hisoblanadi.

16. Agar kvartira (uy)larga issiq suvni markaziy ravishda yetkazib beruvchi maxsus suv ta'minoti tizimiga ulangan bo'lsa kvartira (uy)lar markaziy issiq suv tizimi bilan ta'minlangan hisoblanadi.

17. Agar kvartira (uy)lar yakka holda suv isitgichlari va kichik o'lchamli isitish qozonlari orqali issiq suv bilan ta'minlansa, kvartira (uy)lar yakka tartibdagi issiq suv tizimi bilan ta'minlangan hisoblandi.

18. Kvartira (uy)larning issiq suv bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$TD_i = \frac{K_i}{K} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_i – kvartira (uy)larning issiq suv bilan ta'minlanganlik darajasi;

K_i – yil oxiriga issiq suv bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni;

K – yil oxiriga jami kvartira (uy)lar soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 5-ilovada keltirilgan.

4-§. Kvartira (uy) larning issiqlik bilan ta'minlanish darajasi ko'rsatkichini hisoblash usuli

19. Agar kvartira (uy)lar markazlashgan issiqlik ta'minotiga yoki yakka holda uskunalar orqali issiqlik ta'minotiga ulangan bo'lsa, kvartira (uy)lar issiqlik bilan ta'minlangan hisoblanadi.

20. Agar kvartira (uy)lar markaziy issiqlik tizimiga va ko'p kvartirali uylarga tutash hududlardagi qozonxonalarga ulangan bo'lsa, kvartira (uy)lar markaziy isitish tizimi bilan ta'minlangan hisoblanadi.

21. Agar kvartira (uy)lar o'z uy qozonxonasi isitgichi va shaxsiy qurilmalari bilan issiqlikka ulangan bo'lsa, yakka tartibda isitish tizimi bilan ta'minlangan hisoblanadi.

22. Kvartira (uy)larning issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$TD_o = \frac{K_o}{K} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_o – kvartira (uy)larning issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasi;

K_o – yil oxiriga issiqlik bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni;

K – yil oxiriga jami kvartira (uy)lar soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 6-ilovada keltirilgan.

23. Ko'p kvartirali uylardagi kvartiralarning issiqlik bilan ta'minlanish

ko'rsatkichini hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$TD_{do} = \frac{K_{do}}{D} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_{do} – ko'p kvartirali uylardagi kvartiralarining issiqlik bilan ta'minlanish darajasi;

K_{do} – issiqlik bilan ta'minlangan ko'p kvartirali uylar soni;

D – yil oxiriga jami ko'p kvartirali uylar soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 7-ildavda keltirilgan.

24. Ko'p kvartirali uylardagi kvartiralarni shaxsiy uskunalar orqali issiqlik bilan ta'minlanish ko'rsatkichini hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$TD_{kio} = \frac{K_{doi}}{K_{kv}} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_{kio} – ko'p kvartirali uylardagi kvartiralarni shaxsiy uskunalar orqali issiqlik bilan ta'minlanish darajasi;

K_{doi} – shaxsiy uskunalar orqali issiqlik bilan ta'minlangan kvartiralar soni;

K_{kv} – yil oxiriga kvartiralar umumiy soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 8-ildavda keltirilgan.

5-§. Kvartira (uy)larning gaz bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash usuli

25. Agar kvartira (uy)lar tabiiy gaz tarmog'iga ulangan bo'lsa, kvartira (uy)lar tabiiy gaz bilan ta'minlangan hisoblanadi.

26. Agar kvartira (uy)dagi gaz plitasi, isitish qurilmasi va boshqa maishiy qurilmalarga gaz ta'minoti gaz balonlar orqali ta'minlangan bo'lsa, kvartira (uy)lar suyultirilgan gaz bilan ta'minlangan hisoblanadi.

27. Kvartira (uy)larning tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$TD_q = \frac{K_q}{K} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_q – kvartira (uy)larning tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi;

K_q – yil oxiriga tabiiy gaz bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni;

K – yil oxiriga kvartira (uy)lar soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 9-ildavda keltirilgan.

28. Kwartira (uy)larning suyultirilgan gaz bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$TD_p = \frac{K_p}{K} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_p – kvartira (uy)larning suyultirilgan gaz bilan ta'minlanganlik darajasi;

K_p – yil oxiriga suyultirilgan gaz bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni;

K – yil oxiriga kvartira (uy)lar soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 10-ilovada keltirilgan.

29. Umumiy gazlashtirish darajasi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$TD_{qp} = \frac{K_q + K_p}{K} \times 100 \%,$$

bu yerda:

TD_{qp} – umumiy gazlashtirish darajasi;

K_p – suyultirilgan gaz bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni;

K_q – tabiiy gaz bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni;

K – jami kvartira (uy)lar soni. Hisoblash (namuna) sxemasi 11-ilovada keltirilgan.

4- bob. Uy-joy olgan va yashash sharoitlarini yaxshilagan oilalarning asosiy ko'rsatkichlari

30. Uy-joy olgan va yashash sharoitlarini yaxshilagan oilalarning asosiy ko'rsatkichlarida tuman va shahar hokimliklaridagi uy-joy olish uchun talabgorlarni tanlash bo'yicha doimiy komissiya tomonidan ma'qullangan, mahalliy boshqaruv organlari tomonidan berilgan uy-joy olish uchun order yoki mahalliy boshqaruv organlarida ro'yxatga olingan uy-joylarni ijaraga berish bo'yicha shartnomalar ma'lumotlarni to'ldirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

31. Hisobot yilida uy-joy olgan va yashash sharoitlarini yaxshilagan oilalar soni - uy-joy olish uchun rasmiy ravishda turar joyga muhtoj deb e'tirof etilgan oilalarning hisobot davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun ajratilgan subsidiya yoki bepul uy-joy olish orqali hamda arzon uy-joy kreditlari yoki ipoteka dasturlari orqali yangi uy-joy sotib olishi yoki yashash sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilaganlar soni

32. Hisobot yilida uy-joy olgan va yashash sharoitlarini yaxshilagan oilalarning ijtimoiy holatiga ko'ra soni – bu uy-joy sharoitlarini yaxshilagan oilalarning ijtimoiy guruhlariga ajratilgan holda statistik hisobga olinishi. Bunda

II jahon urushi qatnashchilari va baynalmilalchi jangchilar, ofitserlar va muddatdan tashqari xizmatdan zaxiraga bo'shatilgan yoki iste'foga chiqqan harbiy xizmatchilar, kasallikning og'ir turlari bilan og'ruvchi fuqarolar, ko'p bolali oilalar, chin yetim bolalarni o'z qaramog'iga olganlar, boquvchisini yo'qotganlar, ishlamaydigan I va II guruh nogironlari, keksayib qolgan yolg'iz pensionerlar, bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bo'lganlar, yosh oilalar va ko'chirilganlar .

5- bob. Yakuniy qoidalar

33. Ushbu uslubiy nizom asosan statistika organlarida foydalanish uchun mo'ljallangan.

34. Mazkur uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy tartib qo'llanma"ga muvofiq bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik milliy ma'lumotlari bazasi (<https://lex.uz/>), 2021- y. 11- avgust.

2. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi. Qonunchilik milliy ma'lumotlari bazasi (<https://lex.uz/>), 1998- y. 24- dekabr.

3. Milliy hisoblar tizimi 2008 EJK, XVJ, IHTT, BMT, JB Nyu-York 2009-y. (<https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/>).

4. Yevropa statistikalari konferensiyasining 2020- yil raundida aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish bo'yicha tavsiyalari. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (https://unece.org/stats/2015/ECECES41_RU).

5. "Uy-joy fondi statistikasi bo'yicha uslubiy qoidalar", Belstat 2015- y. (<http://www.cisstat.com/rus/>).

6. Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlar institutining "Xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda uy xo'jaliklarning suv va issiqlik ta'minoti bilan yakka (avtonom) holda ta'minlanishini statistika hisobiga olish bo'yicha uslubiy tavsiyalari" (25.10.2023 yildagi №01/1-05/2-15/1-202 sonli xati).

Kvartira (uy)larning ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi
Jizzax viloyatida kvartira (uy)larning ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Kvartira (uy)lar soni, birlik – K			Ichimlik suvi bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni, birlik – K_s			Kvartira (uy)larning ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_s = \frac{K_s}{K} \times 100\%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	213 606	95 299	118 307	159079	74102	84977	74,5	77,8	71,8
Jizzax sh.	30 290	30 290		29996	29996		99,0	99,0	
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	7 449	2 022	5 427	5925	1511	4414	79,5	74,7	81,3
Baxmal	21 287	5 072	16 215	8060	1341	6719	37,9	26,4	41,4
G'allaorol	26 406	10 639	15 767	17111	9383	7728	64,8	88,2	49,0
Sharof Rashidov	27 658	5 119	22 539	23741	1778	21963	85,8	34,7	97,4
Do'stlik	10 456	4 480	5 976	7765	3693	4072	74,3	82,4	68,1
Zomin	26 562	11 331	15 231	19099	5989	13110	71,9	52,9	86,1
Zarbdor	12 099	7 056	5 043	8386	4282	4104	69,3	60,7	81,4
Mirzacho'l	9 334	5 802	3 532	9198	5703	3495	98,5	98,3	99,0
Zafarobod	7 938	3 224	4 714	6249	2151	4098	78,7	66,7	86,9
Paxtakor	12 182	5 028	7 154	11096	4834	6262	91,1	96,1	87,5
Forish	15 292	2 966	12 326	8685	2263	6422	56,8	76,3	52,1
Yangiobod	6 653	2 270	4 383	3768	1178	2590	56,6	51,9	59,1

Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi
Jizzax viloyatida aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Jami aholi soni, kishi – A_n			Ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi soni, kishi – A_s			Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_{as} = \frac{A_s}{A_n} \times 100 \%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	1367216	641209	726006	947815	460189	487626	69,3	71,8	67,2
Jizzax sh.	175923	175923	x	174164	174164	x	99,0	99,0	x
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	45536	15625	29911	35827	11719	24108	78,7	75,0	80,6
Baxmal	154229	41709	112520	54990	11219	43771	35,7	26,9	38,9
G'allaorol	169542	59885	109657	104651	51686	52965	61,7	86,3	48,3
Sharof Rashidov	217196	86762	130434	152971	31407	121564	70,4	36,2	93,2
Do'stlik	64825	27524	37301	47180	22487	24693	72,8	81,7	66,2
Zomin	161731	76804	84927	109823	41627	68196	67,9	54,2	80,3
Zarbdor	84803	47174	37629	57511	26889	30622	67,8	57,0	81,4
Mirzacho'l	51021	28417	22604	46288	25945	20343	90,7	91,3	90,0
Zafarobod	49333	22553	26780	36841	14185	22656	74,7	62,9	84,6
Paxtakor	73580	36004	37576	63023	32511	30512	85,7	90,3	81,2
Forish	91675	16992	74683	49505	13135	36370	54,0	77,3	48,7
Yangiobod	27818	5835	21982	15041	3215	11826	54,1	55,1	53,8

Uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko'rsatkichlarini
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga 3-ilova

Kvartira (uy)larning yakka holda muqobil manbalar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi Jizzax viloyatida kvartira (uy)larning yakka holda muqobil manbalar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Kvartira (uy)lar soni, birlik – K			Yakka holda muqobil manbalar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni, birlik – K_{sm}			Kvartira (uy)larning ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_s = \frac{K_{sm}}{K} \times 100\%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	213 606	95 299	118 307	54 519	21 156	33 363	25,5	22,2	28,2
Jizzax sh.	30 290	30 290							
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	7 449	2 022	5 427	1 527	512	1 015	20,5	25,3	18,7
Baxmal	21 287	5 072	16 215	13 235	3 733	9 502	62,1	73,6	58,6
G'allaorol	26 406	10 639	15 767	9 296	1 255	8 041	35,2	11,8	51
Sharof Rashidov	27 658	5 119	22 539	3 929	3 343	586	14,2	65,3	2,6
Do'stlik	10 456	4 480	5 976	2 694	788	1 906	25,7	17,6	31,9
Zomin	26 562	11 331	15 231	7 454	5 337	2 117	28,1	47,1	13,9
Zarbdor	12 099	7 056	5 043	3 711	2 773	938	30,7	39,3	18,6
Mirzacho'l	9 334	5 802	3 532	134	99	35	1,5	1,7	1
Zafarobod	7 938	3 224	4 714	1 692	1 074	618	21,3	33,3	13,1
Paxtakor	12 182	5 028	7 154	1 090	196	894	8,9	3,9	12,5
Forish	15 292	2 966	12 326	6 607	703	5 904	43,2	23,7	47,9
Yangiobod	6 653	2 270	4 383	2 885	1 092	1 793	43,4	48,1	40,9

Uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko'rsatkichlarini
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga 4-ilova

Kvartira (uy)larning kanalizatsiya bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi
Jizzax viloyatida kvartira (uy)larning kanalizatsiya bilan ta'minlanganlik darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Kvartira (uy)lar soni, birlik – K (1-uy-joy fondi shakli (yillik))			Kanalizatsiya bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni, birlik – K_k (1-uy-joy fondi shakli (yillik))			Kvartira (uy)larning kanalizatsiya bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_k = \frac{K_k}{K} \times 100 \%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	213 606	95 299	118 307	47354	28190	19164	22,2	29,6	16,2
Jizzax sh.	30 290	30 290		17543	17543		57,9	57,9	
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	7 449	2 022	5 427	911	133	778	12,2	6,6	14,3
Baxmal	21 287	5 072	16 215	2922	347	2575	13,7	6,8	15,9
G'allaorol	26 406	10 639	15 767	4840	2454	2386	18,3	23,1	15,1
Sharof Rashidov	27 658	5 119	22 539	4962	1256	3706	17,9	24,5	16,4
Do'stlik	10 456	4 480	5 976	1706	786	920	16,3	17,5	15,4
Zomin	26 562	11 331	15 231	4381	1954	2427	16,5	17,2	15,9
Zarbdor	12 099	7 056	5 043	2630	1315	1315	21,7	18,6	26,1
Mirzacho'l	9 334	5 802	3 532	1594	1043	551	17,1	18,0	15,6
Zafarobod	7 938	3 224	4 714	923	213	710	11,6	6,6	15,1
Paxtakor	12 182	5 028	7 154	1953	785	1168	16,0	15,6	16,3
Forish	15 292	2 966	12 326	2237	215	2022	14,6	7,2	16,4
Yangiobod	6 653	2 270	4 383	752	146	606	11,3	6,4	13,8

Kvartira (uy)larning issiq suv bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi
Jizzax viloyatida kvartira (uy)larning issiq suv bilan ta'minlanganlik darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Kvartira (uy)lar soni, birlik – K (1 uy-joy fondi shakli (yillik))			Issiq suv bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni, birlik – K_i (1 uy-joy fondi shakli (yillik))			Kvartira (uy)larning issiq suv bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_i = \frac{K_i}{K} \times 100 \%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	213 606	95 299	118 307	23095	18185	4910	10,8	19,1	4,2
Jizzax sh.	30 290	30 290		15454	15454		51,0	51,0	
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	7 449	2 022	5 427	148	85	63	2,0	4,2	1,2
Baxmal	21 287	5 072	16 215	661	165	496	3,1	3,3	3,1
G'allaorol	26 406	10 639	15 767	660	415	245	2,5	3,9	1,6
Sharof Rashidov	27 658	5 119	22 539	2941	666	2275	10,6	13,0	10,1
Do'stlik	10 456	4 480	5 976	303	114	189	2,9	2,5	3,2
Zomin	26 562	11 331	15 231	656	490	166	2,5	4,3	1,1
Zarbdor	12 099	7 056	5 043	302	151	151	2,5	2,1	3,0
Mirzacho'l	9 334	5 802	3 532	338	118	220	3,6	2,0	6,2
Zafarobod	7 938	3 224	4 714	302	65	237	3,8	2,0	5,0
Paxtakor	12 182	5 028	7 154	295	122	173	2,4	2,4	2,4
Forish	15 292	2 966	12 326	770	315	455	5,0	10,6	3,7
Yangiobod	6 653	2 270	4 383	265	25	240	4,0	1,1	5,5

Kvartira (uy)larning issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi
Jizzax viloyatida kvartira (uy)larning issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Kvartira (uy)lar soni, birlik – K			Issiqlik bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni, birlik – K_o			Kvartira (uy)larning issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_o = \frac{K_o}{K} \times 100 \%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	213 606	95 299	118 307	47171	30085	17086	22,1	31,6	14,4
Jizzax sh.	30 290	30 290		13953	13953		46,1	46,1	
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	7 449	2 022	5 427	2041	452	1589	27,4	22,4	29,3
Baxmal	21 287	5 072	16 215	3510	1315	2195	16,5	25,9	13,5
G'allaorol	26 406	10 639	15 767	4434	2641	1793	16,8	24,8	11,4
Sharof Rashidov	27 658	5 119	22 539	3966	1231	2735	14,3	24,0	12,1
Do'stlik	10 456	4 480	5 976	1924	1138	786	18,4	25,4	13,2
Zomin	26 562	11 331	15 231	4763	2673	2090	17,9	23,6	13,7
Zarbdor	12 099	7 056	5 043	3426	1713	1713	28,3	24,3	34,0
Mirzacho'l	9 334	5 802	3 532	1878	1475	403	20,1	25,4	11,4
Zafarobod	7 938	3 224	4 714	1486	804	682	18,7	24,9	14,5
Paxtakor	12 182	5 028	7 154	2224	1272	952	18,3	25,3	13,3
Forish	15 292	2 966	12 326	2500	855	1645	16,3	28,8	13,3
Yangiobod	6 653	2 270	4 383	1066	563	503	16,0	24,8	11,5

Ko'p kvartirali uylarni issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi

Jizzax viloyatida ko'p kvartirali uylarni issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasi

2024- yil 1-yanvar holatiga

	Jami ko'p kvartirali uylar soni, birlik – D			Issiqlik bilan ta'minlangan ko'p kvartirali uylar soni, birlik – K_{do}			Kvartira (uy)larning issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_{do} = \frac{K_{do}}{D} \times 100 \%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	2 598	1 814	784	1806	1342	464	69,5	74,0	59,2
Jizzax sh.	742	742		643	643		86,7	86,7	
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	82	25	57	53	20	33	64,6	80,0	57,9
Baxmal	15	14	1	8	8		53,3	57,1	
G'allaorol	127	71	56	102	62	40	80,3	87,3	71,4
Sharof Rashidov	114	42	72	95	37	58	83,3	88,1	80,6
Do'stlik	283	167	116	134	93	41	47,3	55,7	35,3
Zomin	122	72	50	95	64	31	77,9	88,9	62,0
Zarbdor	191	129	62	108	87	21	56,5	67,4	33,9
Mirzacho'l	254	174	80	177	115	62	69,7	66,1	77,5
Zafarobod	117	78	39	68	48	20	58,1	61,5	51,3
Paxtakor	510	272	238	297	145	152	58,2	53,3	63,9
Forish	40	27	13	25	19	6	62,5	70,4	46,2
Yangiobod	1	1		1	1		100,0	100,0	

Ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar shaxsiy uskunalar orqali issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi
Jizzax viloyatida ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar shaxsiy uskunalar orqali issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Jami ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar soni, birlik – K_{kv}			Shaxsiy uskunalar orqali issiqlik bilan ta'minlangan ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar soni, birlik – K_{dio}			Kvartira (uy)larning issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_{kto} = \frac{K_{doi}}{K_{kv}} \times 100 \%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	68 642	45 130	23 512	47716	33387	13915	69,5	74,0	59,2
Jizzax sh.	20 356	20 356		17640	17640		86,7	86,7	
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	1 822	542	1 280	1178	434	741	64,6	80,0	57,9
Baxmal	1 533	1 533		818	876		53,3	57,1	
G'allaorol	7 767	3 600	4 167	6238	3144	2976	80,3	87,3	71,4
Sharof Rashidov	8 471	2 421	6 050	7059	2133	4874	83,3	88,1	80,6
Do'stlik	3 742	2 319	1 423	1772	1291	503	47,3	55,7	35,3
Zomin	8 065	4 132	3 933	6280	3673	2438	77,9	88,9	62,0
Zarbdor	3 386	2 179	1 207	1915	1470	409	56,5	67,4	33,9
Mirzacho'l	3 353	2 427	926	2337	1604	718	69,7	66,1	77,5
Zafarobod	2 134	1 073	1 061	1240	660	544	58,1	61,5	51,3
Paxtakor	5 540	3 631	1 909	3226	1936	1219	58,2	53,3	63,9
Forish	2 457	901	1 556	1536	634	718	62,5	70,4	46,2
Yangiobod	16	16		16	16		100,0	100,0	

Kvartira (uy)larning tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi
Jizzax viloyatida kvartira (uy)larning tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Kvartira (uy)lar soni, birlik – K			Tabiiy gaz bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni, birlik – K_q			Kvartira (uy)larning tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_q = \frac{K_q}{K} \times 100 \%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	213 606	95 299	118 307	138420	83594	54826	64,8	87,7	46,3
Jizzax sh.	30 290	30 290		30290	30 290		100,0	100,0	
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	7 449	2 022	5 427	2201	1394	807	29,5	68,9	14,9
Baxmal	21 287	5 072	16 215	8721	4230	4491	41,0	83,4	27,7
G'allaorol	26 406	10 639	15 767	18635	8160	10475	70,6	76,7	66,4
Sharof Rashidov	27 658	5 119	22 539	27107	4568	22539	98,0	89,2	100,0
Do'stlik	10 456	4 480	5 976	4725	3718	1007	45,2	83,0	16,9
Zomin	26 562	11 331	15 231	10760	9272	1488	40,5	81,8	9,8
Zarbdor	12 099	7 056	5 043	8156	6374	1782	67,4	90,3	35,3
Mirzacho'l	9 334	5 802	3 532	6085	5279	806	65,2	91,0	22,8
Zafarobod	7 938	3 224	4 714	4088	2289	1799	51,5	71,0	38,2
Paxtakor	12 182	5 028	7 154	8450	4673	3777	69,4	92,9	52,8
Forish	15 292	2 966	12 326	6569	2 966	3603	43,0	100,0	29,2
Yangiobod	6 653	2 270	4 383	2633	381	2252	39,6	16,8	51,4

Uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko'rsatkichlarini
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga 10-ilova

Kvartira (uy)larning suyultirilgan gaz bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash (namuna) sxemasi
Jizzax viloyatida kvartira (uy)larning suyultirilgan gaz bilan ta'minlanganlik darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Kvartira (uy)lar soni, birlik – K			Suyultirilgan gaz bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni, birlik – K_p			Kvartira (uy)larning suyultirilgan gaz bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda $TD_p = \frac{K_p}{K} \times 100 \%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	213 606	95 299	118 307	62057	8959	53098	29,1	9,4	44,9
Jizzax sh.	30 290	30 290							
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	7 449	2 022	5 427	3760	200	3560	50,5	9,9	65,6
Baxmal	21 287	5 072	16 215	10692	842	9850	50,2	16,6	60,7
G'allaorol	26 406	10 639	15 767	7041	2479	4562	26,7	23,3	28,9
Sharof Rashidov	27 658	5 119	22 539	40	40		0,1	0,8	
Do'stlik	10 456	4 480	5 976	3410	200	3210	32,6	4,5	53,7
Zomin	26 562	11 331	15 231	12708	2010	10698	47,8	17,7	70,2
Zarbdor	12 099	7 056	5 043	3250	380	2870	26,9	5,4	56,9
Mirzacho'l	9 334	5 802	3 532	3110	450	2660	33,3	7,8	75,3
Zafarobod	7 938	3 224	4 714	3056	600	2456	38,5	18,6	52,1
Paxtakor	12 182	5 028	7 154	3315	100	3215	27,2	2,0	44,9
Forish	15 292	2 966	12 326	7985		7985	52,2		64,8
Yangiobod	6 653	2 270	4 383	3690	1658	2032	55,5	73,0	46,4

Uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko'rsatkichlarini
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga 11-ilova

Kvartira (uy)larning umumiy gazlashtirish darajasini hisoblash (namuna) sxemasi
Jizzax viloyatida kvartira (uy)larning umumiy gazlashtirish darajasi
2024- yil 1-yanvar holatiga

	Kvartira (uy)lar soni, birlik – K			Tabiiy (K_q) va suyultirilgan (K_p) gaz bilan ta'minlangan kvartira (uy)lar soni, birlik			Kvartira (uy)larning umumiy gazlashtirish darajasi, foizda $TD_{qp} = \frac{K_q + K_p}{K} \times 100 \%$		
	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida	jami	shahar joylarida	qishloq joylarida
Jizzax viloyati	213 606	95 299	118 307	200477	92553	107924	93,9	97,1	91,2
Jizzax sh.	30 290	30 290	x	30290	30290		100,0	100,0	
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	7 449	2 022	5 427	5961	1594	4367	80,0	78,8	80,5
Baxmal	21 287	5 072	16 215	19413	5072	14341	91,2	100,0	88,4
G'allaorol	26 406	10 639	15 767	25676	10639	15037	97,2	100,0	95,4
Sharof Rashidov	27 658	5 119	22 539	27147	4608	22539	98,2	90,0	100,0
Do'stlik	10 456	4 480	5 976	8135	3918	4217	77,8	87,5	70,6
Zomin	26 562	11 331	15 231	23468	11282	12186	88,4	99,6	80,0
Zarbdor	12 099	7 056	5 043	11406	6754	4652	94,3	95,7	92,2
Mirzacho'l	9 334	5 802	3 532	9195	5729	3466	98,5	98,7	98,1
Zafarobod	7 938	3 224	4 714	7144	2889	4255	90,0	89,6	90,3
Paxtakor	12 182	5 028	7 154	11765	4773	6992	96,6	94,9	97,7
Forish	15 292	2 966	12 326	14554	2966	11588	95,2	100,0	94,0
Yangiobod	6 653	2 270	4 383	6323	2039	4284	95,0	89,8	97,7

Приложение к приказу
Национального комитета
Республики Узбекистан
по статистике
от «29» апреля 2025 г. № 7

Методические положения по расчёту статистических показателей благоустройства жилищного фонда

Настоящие методические положения (далее — положения) определяет порядок расчёта статистических показателей благоустройства жилищного фонда.

Данные положения разработаны на основе требований «Типовой модели процессов производства статистических данных» (The Generic Statistical Business Process Model, далее – GSBPM)

Методические положения определяет механизм формирования показателей по расчету уровня обеспечения жилых домов (квартир) такими услугами, как водоснабжение, канализация, отопление, горячее водоснабжение и природный газ, а также по состоянию заявок, поданных гражданами для улучшения жилищных условий и получения жилья, включая данные о сиротах, детях, оставшихся без попечения родителей, а также о лицах, относящихся к этой категории (от 18 до 23 лет), с целью формирования соответствующей статистической информации и обеспечения единого методического подхода в этих вопросах.

Глава 1. Общие положения

1. Настоящие положения включает в себя интеграцию, классификацию и кодирование данных, формирование новых показателей, обобщение и переработку процессов в рамках этапа обработки GSBPM.

2. В этих методических положениях используются следующие понятия:
жилищный фонд — это фонд, состоящий из жилых помещений, пригодных для проживания человека, включая жилые дома, квартиры, служебные жилые помещения, специализированные дома (общежития, дома маневренного жилищного фонда, дома-интернаты для инвалидов, ветеранов,

одиноких престарелых, а также детские дома и дома иного специального назначения);

жилым помещением признается помещение, отвечающее установленным санитарным, противопожарным и техническим требованиям, предназначенное для постоянного проживания граждан, а также для использования в установленном порядке в качестве специализированных домов;

